



individuals expand their vocabulary, improve language comprehension, and develop the ability to communicate effectively across cultural boundaries.

4. Gaining Empathy and Perspective:

The themes and characters depicted in folklore works evoke universal feelings and resonate in different cultures. By immersing themselves in English and Uzbek folklore, individuals can develop empathy, understanding of different perspectives, sensitivity and respect for cultural differences.

In conclusion, the study of English and Uzbek folklore works creates a unique opportunity to improve the skills of intercultural communication. By studying the cultural heritage and storytelling traditions of different societies, individuals can develop a deeper appreciation of cultural diversity, build connections between cultures, and communicate effectively in a globalized world. Embracing the richness and diversity of folklore is not only a means of preserving cultural heritage, but also a way to strengthen mutual understanding and harmonious intercultural relations.

References

1. Kayumov O. History of foreign literature. - Tashkent: Teacher, 1979 [1]
2. Mirzaeva S. Folklore traditions in realistic Uzbek literature. Educational and methodical manual of folklore studies.-T.: "Istiqlol", 2005 [2]
3. Sarimsakov B. Genre composition of Uzbek folklore. // Essays on Uzbek folklore. 3-story, 1-story. T.: "Science", 1988 [3]
4. Кургузенкова Ж.В. Концептуализация женской красоты в английской языковой культуре //Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Русский и иностранные языки и методика их преподавания. 2016. № 1. [4]

TA'LIMGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tilavova Malika
Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti o'qituvchisi
Jizzax davlat pedagogika universiteti kafedrasida
Ahmedov Oybek
filologiya fanlari doktori
Ingliz tilini o'qitish metodikasi professori,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti



Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha jabhalarida yangi bosqichga o'tish davridagi yuz berayotgan o'zgarishlar va zamonaviy islohotlar natijasida boshqa tarmoqlar ham yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bunday ekstralingvistik omillar ta'sirida ona tilimizda minglab yangi tushunchalar va leksik birliklarni paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Ushbu tushunchalarni ifodalash maqsadida minglab soha egalari chuqurroq izlanish olib borib, yangi leksik birliklarni tahlil qilib hujjatlarda aniq ishlatishga harakat qilishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis qonunchilik palatasi va senatga, shuningdek, O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir"⁹ - deya ta'kidlagan edi.

Shubhasiz, umumta'lim, oliy ta'lim va barcha tegishli ta'lim sohalarining sifatini oshirish mamlakatimizning kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, buning zahirida mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasi turibdi. Shu jihatdan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z Murojaatnomasida ta'limni "Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya" - deb ta'kidlagani chuqur strategik ahamiyatga ega va ushbu nutqdan o'ta muhim istiqbolli kelajak nazarda tutilgan.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ekspertlari tomonidan o'tkazilgan lingvistik kontent tahlil natijalariga ko'ra, Prezident nutqining asosiy qismi ta'lim-tarbiya sohasini yanada rivojlantirishga bag'ishlangan. Xususan, "ta'lim" va "maktab" so'zlari eng ko'p qo'llangan so'zlar qatoridan joy olmoqda.

Ushbu islohotlar ta'limga tegishli barcha qatlamlarni rivojlantirib yanada takomillashishiga olib keldi. Shu bilan bir qatorda, bu jarayon ona tilimizga yangi baynalmilal (internatsional) leksik birliklardan tashqari turli neologizmlarni kirib

⁹Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ва минтақалараро тадқиқотлар институти расмий сайти <https://isrs.uz/uz/uzbekiston-yangiliklari>



kelish oqimini ham jadallashtirmoqda. Masalan: **KPI** - Key Performance Indicators, **QS** - Quacquarelli Symonds, Google scholar va hokazolar shular jumlasidandir.

Shuni alohida qayd etish joizki, ta'lim-tarbiya sohasi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar hamda munosabatlar dastlabki yozma manbalarning paydo bo'lishidan boshlab to hozirgi kungacha ko'plab xorijlik va mahalliy olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilgan va hozirgi kungacha qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

Tilshunos olimlardan G.I Jelezovskaya, C.B Yeremina, L.V Lisochenko, V.M Sergevnina, Ch Stivenston,¹⁰ N.Rashidova¹¹ ta'limga oid leksik birliklarni ta'lim tizimlariga uzviy bog'lab, ularning paydo bo'lishi, turlarini va tezaurusda, turli tilli lug'atlarda berilishlarini o'rganishgan.

Jahon ta'lim muassasalarining xizmatlar tizimida, ta'limda ish yuritish tilida, sohaga mansub kalit so'zlar va so'z birikmalarini ham uchratish mumkin. Ularning barchasi ta'lim sohasiga oid nutqiy kommunikatsiya jarayonida faol ishlatiladi. Bundan tashqari, maxsus ta'lim sohasida ish yuritish hujjatlarida va maxsus matnlarda o'z aksini topadi. Shu ma'noda aytish mumkinki, har bir tilda boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar o'ziga xos o'rin egallaydi. Til xalq taraqqiyotining ajralmas hamrohidir. Tildagi muhim o'zgarishlar "ichki" va "tashqi" ko'rsatkichlarning hosilasi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Davlatlararo integratsiya va globalizatsiya natijasida o'zbek tilining ta'lim sohasidagi yozma va og'zaki nutqga ko'plab ingliz tili leksik birliklari kirib keldi va ular bugungi kunda faol qo'llanilmoqda. Jumladan: *certificate* –sertifikat, *license-litsenziya*, ya'ni, *ruxsatnoma*; *tutor* – *tyutor*, ya'ni, *talabalarining guruh raxbari*, *muassasalarda bir necha guruhlarini nazorat qiladi*; *facilitator* – *fasilitator*, ya'ni, *muassasalarda o'quv jarayonidagi maxsus vosita hisoblanadi*; *authentic material* – *autentik materiallar (real hayotga bog'lab tayyorlangan matnlar)* va h.

¹⁰Заварзина В. А. Новые актуальные термины сферы образования // Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. – Пенза, 2020. – С. 114-116 .

¹¹Н.Рашидова. Лексико-семантический анализ арабизмов сферы Образования узбекистана. Автореферат диссертации доктора Философии (phd) по филологическим наукам. 2021. Ташкент. С. 53



Ingliz tilidan o‘zbek tili ta’lim sohasiga kirib kelgan ayrim leksik birliklarni tarjimasiz ham qo‘llash mumkin. Biroq, ona tilimizda ularning muqobili bo‘la turib ham ular ma’lum tushunchani aniq ifodalagan holatlarda ham chet tili leksik birliklarini tilga kiritaverish haqli e’tirozni keltirib chiqaradi. Masalan: *curriculum vitae* – *shaxsiy ma’lumot*; *monitoring* – *nazorat qilish*; *context* – *matn*; *paragraph* – *xatboshi* va h. Bunday leksik birliklar nega o‘zbek tiliga kiritilib faol qo‘llaniladi? Axir, ularning ma’nosini anglatadigan o‘zbekcha so‘zlar borku? – degan haqli e’tirozni keltirib chiqaradi. Bu savolga javob shuki, ingliz tilidan o‘zlashgan ta’limga oid leksik birliklar ta’lim-tarbiya sohasida faoliyat olib boradigan xodimlar va mutaxassislar o‘rtasida ko‘proq foydalanilishi sababli, ularning nutqida *deadline* – *dedlayn*, *method* – *metod*, *laboratory* – *laboratoriya*, *essay* – *esse*, *patent* – *patent*, *quote* – *kvota* kabi leksik birlik mustahkam o‘rin egallagan. O‘z navbatida aytish lozimki, birinchi navbatda yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishiga asosiy sabab mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro diplomatik hamkorlik va kelishuvlar bo‘lsa, ikkinchidan, qabul qiluvchi tilning kognitiv maydonida mos keluvchi tushuncha mavjud emasligi va unga mos nominativ so‘z yo‘qligi bilan izohlanadi.

O‘zbek tiliga o‘zlashib, kirib kelgan 1) to‘liq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri transkripsiya va transliteratsiya yordamida *mind-map*, *case study*, *swot*, *direct*, *moderator*; 2) semantik kal’kalangan *inklyuziv ta’lim*, *variativ sinf*, *ikki mutaxassislik diplom*, *mobil guruhlar*, *shaxsga yo‘naltirilgan dars*, *vizual qobiliyat*, *STEAM ta’lim* va hokozolarni misol sifatida keltirish mumkin. 3) gibrid va yarim kal’kalangan leksik birliklarga *zoom orqali dars*, *smart oliygoh* kabi ta’limga oid leksik birliklarni bugungi kunda faol qo‘llanilishini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Mazkur sohaga oid leksik birliklar hanuzgacha ona tilimizda sermahsul bo‘lib qo‘llanilishi to‘xtamagan va ta’lim muassasalarining hujjatlarida muntazam shaklda aks etib kelmoqda.



G.Paulning fikriga ko‘ra, muayyan til qatlamiga yangi leksik birliklar faqatgina madaniy ta’sir ostida va mavhum bo‘lmagan so‘zlarni qo‘llash orqali ekstralingvistik omillar ta’sirida kirib keladi¹².

A.P. Mayorovning e’tirof etishicha, “xorijiy yangi so‘zlar muloqot va tasvirlash imkoniyatlarini rivojlantirish va kengaytirish maqsadida, ya’ni tushunchalar hajmini kengaytirish, yangi tushunchalarning nominativ xususiyatlariga, ya’ni ta’rifiga emas, uning funktsional-semantik xususiyatlariga, vazifaviy jihatdan nimani anglatishiga, shuningdek, qisqa va ixcham tarzda nomlash orqali muloqotni tinglovchiga yengillashtirish uchun kirib kelishiga e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi”¹³.

Ayni paytda o‘zbek tili ta’lim sohasi lug‘atlarida chet tillar, xususan, ingliz tilidan o‘zlashtirilayotgan yangi terminlar vujudga kelishi natijasida terminologik tizim fondi muntazam ravishda kengayib, to‘ldirilib borayotgani ham kuzatilmoqda. Demak, tilning terminologik tarkibi muttasil davom etadigan ijtimoiy - iqtisodiy hodisa va jarayonlar bilan o‘zaro mustahkam aloqada bo‘ladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, istiqlolgacha bo‘lgan davrda o‘zbek tili ta’lim terminlarining kal’ka usulida yasalishi nuqtai nazaridan rus tili “etakchilik” qilgan. Vaholanki, o‘zbek tili ta’lim sohasi tizimida keng qo‘llaniladigan leksik qatlamning asosiy qismi rus tili ta’siri ostida shakllanganligi tasodifiy holda sodir bo‘lmagan. O‘zbek tili ta’lim leksik birliklar tizimining shakllanishi, terminlarning yasalishidagi asosiy usul to‘liq kal’kalashdir. Istiqlolgacha *talaba* va *oliy ta’lim* terminlari nisbatan kamroq qo‘llanilgan. Ularning muqobili sifatida rus tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan *student*, *stipendiya* hamda *Высшее учебное заведение* (ВУЗ) terminlari muloqotda faolroq edi.

Yaqin o‘tmishda ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liq tarzda o‘zbek tili ta’lim sohasi tizimidagi tarkibiy o‘zgarishlar tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman va boshqa tillarda ham kuzatildi. Anglashiladiki, o‘zbek tili ta’lim sohasi leksik qatlami hali to‘liq shakllanishdan to‘xtagani yo‘q, aksincha, ma’lum bir ekstralingvistik va intralingvistik

¹²Арнольд И.В. Преемственность в филологическом тексте // Труды Ин-та лингвистических исследований. Т. III. Ч. 1. СПб.: Наука, 2007. С. 26–29.

¹³Майоров, А.П. Очерки лексики региональной деловой письменности XVIII века / А. П. Майоров. - Москва: Азбуковик, 2006. - 261, [1] с: ил., табл., факс.; 22 см.; ISBN 5-91172-002



omillar asosida tizimli tarzda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda zamonaviy yangi leksik birliklarning yasash jarayoni nihoyatda faol kechayotir, desak mubolag'a bo'lmaydi.

L.P. Krisin, "...tillarga yangi leksik birliklarning kirib kelish faqatgina morfologik va fonetik tamoyillar orqali vujudga keladi, boshqa tillarning leksik birliklari o'zlashishga moyildir"¹⁴, - deya e'tirof etadi.

Tilshunos olim O.F. Emerson esa "...leksik birliklar faqatgina xalq og'zaki nutqi orqali o'zlashib yangi tushunchalarni nomlashi mumkin"¹⁵ - degan talqinni ilgari suradi.

Leksik birliklar nafaqat og'zaki nutq orqali, balki ta'lim sohasi bo'yicha nashr etilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalar, ilmiy-ommabop asarlar, turli lug'atlarga ham o'zlashib kirib kelmoqda. Ushbu birliklar lug'atlarda o'z ifodasini to'g'ri topishi, aksar leksik birliklar o'zbek tilining ichki qonuniyatlari asosida tushunchalarni aniq va ravon ifodalashi, mazkur jarayonning hozirgi zamon talab darajasida bo'lishini ta'minlash tilshunos olimlarning asosiy maqsadi bo'lib qolmoqda.

V.A. Zavarzina "Ta'lim sohasiga oid leksik birliklarni maxsus so'zli belgilar tizimi, ular faqat o'z mavzu doirasiga oid manbalar orqali boshqa tilga o'zlashadi va ularni uch mavzu doirasida ko'rib chiqish, ya'ni "ta'lim", "didaktika" va "tarbiya" bilan bog'liq ravishda o'rganish va tarjimada mavzuiy guruhga e'tibor berish kerak",- deya o'z fikrini bildiradi.

V.A.Zavarzinaning talqiniga zid ravishda N.Komarovski "..."ta'lim sohasi insoniyat hayoti bilan chambarchas bog'liq va u turli mavzuga oid barcha leksik birliklarni doim o'zlashtirib keladi, unda yagona bir mavzuiy guruh bo'lishi mumkin emas",- degan fikrni bayon etadi¹⁶.

¹⁴ Крысин 2004 – Л. П. Крысин. Социальная маркированность языковых единиц // Русское слово, свое и чужое: Исследования по современному русскому языку и социолингвистике. М.: Языки слав. культуры, 2004. С.-509.

¹⁵ Johnston J., Barker L. T. Assessing the impact of technology in teaching and learning: A sourcebook for educators. Institute of Social Research, University of Michigan, 2002.



Biroq, ta'limga oid leksik birliklarga oid tadqiqotlar V.S Shapovalova, V.I. Tuzlukova, I.V. Kicheva, O.B. Dautova, Y.V Kadzukova, Y.V Slojenikin, A.N Rijov, S.M. Bok, E.J. Burge, I.A. Morrison kabi olimlar tomonidan alohida mavzuiy guruhlariga ajratib o'rganilgan. Demak, soha leksik birliklarini guruhlariga ajratib tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

References

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ва минтақалараро тадқиқотлар институти расмий сайти
<https://isrs.uz/uz/ozbekiston-yangiliklari>
2. Заварзина В. А. Новые актуальные термины сферы образования // Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. – Пенза, 2020. – С. 114-116 .
3. Н.Рашидова. Лексико-семантический анализ арабизмов сферы Образования узбекистана. Автореферат диссертации доктора Философии (phd) по филологическим наукам. 2021. Ташкент. С. 53
4. Арнольд И.В. Преемственность в филологическом тексте // Труды Ин-та лингвистических исследований. Т. III. Ч. 1. СПб.: Наука, 2007. С. 26–29.
5. Майоров, А.П. Очерки лексики региональной деловой письменности XVIII века / А. П. Майоров. - Москва: Азбуковик, 2006. - 261, [1] с: ил., табл., факс.; 22 см.; ISBN 5-91172-002
6. Крысин 2004 – Л. П. Крысин. Социальная маркированность языковых единиц // Русское слово, свое и чужое: Исследования по современному русскому языку и социолингвистике. М.: Языки слав. культуры, 2004. С.-509.
7. Johnston J., Barker L. T. Assessing the impact of technology in teaching and learning: A sourcebook for educators. Institute of Social Research, University of Michigan, 2002.
8. Tilavova, M. (2021). РОЛЬ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
9. Tilavova, M. (2021). The Impact Of Motivation In Learning Foreign Languages. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
10. Tilavova, M. M. (2022). EFFECTIVENESS OF STATE YOUTH POLICY IN OUR COUNTRY. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(1), 277-286.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TA'LIMGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING TUZILISHI, ISHLATILISHIGA KO'RA TADQIQI

Tilavova Malika
Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti o'qituvchisi
Jizzax davlat pedagogika universiteti kafedrası

Annotatsiya